

NUTQ IFODASINI KUCHAYTIRISHDA GIPONIMIYA HODISASINING AHAMIYATI HAQIDA MULOHAZALAR

Kunishova Marjona

Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati insituti talabasi

Xusanova Zarifa Narzullayevna

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, o'zbek
tilshunosligi kafedrasida dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17973115>

Annotatsiya: ushbu maqolada so'zlararo ma'no munosabatlarining bir turi hisoblanadigan giponimiya hodisasining nutq jarayonining badiiyligini, ifodaliligini, aniqligini kuchaytirishdagi roli va ahamiyati tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: giponimiya, leksik paradigma, giper-giponimiya, zoonim, semantik, nutq, badiiy matn, tor ma'no, keng ma'no, atama, graduonimiya, partonimiya.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunoslari so'zlararo ma'no munosabatlarining sinonimiya, omonimiya, antonimiya kabi shakllaridan boshqa giponimiya, graduonimiya, partonimiya kabi turlarini ham ajratadilar.¹ Giponimiya atamasi birinchi bo'lib 1968-yilda ingliz olimi D.J.Layons tomonidan qo'llanadi. O'zbek tilshunosligida R.Safarova tomonidan 1990-yilda "O'zbek tilida giponimiya" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi leksik paradigmalar o'rtasidagi munosabat, bog'liqlik va qarama-qarshiliklarni aniqlash hamda keng qo'llanadigan zoonimga oid materiallar asosida giper-giponimik munosabatlarning o'ziga xos jihatlarini o'rganishdan iborat edi.²

Til tizimida ushbu hodisa so'zlarning tartiblangan, mantiqiy va bosqichli semantik guruhlariga ajralishini ta'minlaydi. Nutq jarayonida esa giponimiyadan foydalanish mazmunning yanada aniqroq, ta'sirchanroq va ifodaliroq bo'lishiga xizmat qiladi. *Dimog'imga olma gulining hidi uriladi. (Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi 92-bet). Ammamnikida behiyam bor, gilos ham. Bir oymi ikki oy avval kelganimda rosa gilos yeganman. (Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi 26-bet). Dadam qoshini chimirib shaftolining po'stini archib berdi. (Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi 37-bet). Allaqayerda haqqush nola qiladi, shamol behi barglarini shitirlatadi. (Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi 113-bet). Nok bo'lsa pishmagan. Tosh nok. (Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi 26-bet). Kuzda odamlardan uzum olib, musallas soladi. (Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi 82-bet).* Ushbu gaplarda behi, gilos, olma, shaftoli, uzum so'zlari giponimiyaga misol bo'la oladi.

Giponim ishlatilgan nutq umumiy so'zlardan ko'ra aniqroq bo'ladi. Masalan "qush uchib ketdi"degan jumla umumiy mazmunga ega bo'lsa, "burgut uchib ketdi" kabi giponimlardan foydalanish voqealikni aniq tasvirlaydi. Aniqlik ifodalilikning asosiy omillaridan biri bo'lib, tinglovchi yoki o'quvchining tasavvurini yanada jonlantiradi. *Omon ovchi bu kakliklarni o'z xo'jaligidek bilar, toqqa chiqishga xushi bo'lmaganda, ulardan uch-to'rttasini otib olib, xumorini bosardi. (Xolmirzayev Shukur. Omon ovchining o'limi). Omon ovchi shu ketishda katta bir burgutni ham ortib, so'ng uni xo'p tomosha qilib, keyin oyoqlarini kesib oldi. (Xolmirzayev Shukur. Omon ovchining o'limi). Keyin esa ularning kushandalari boyqush ko'payadi: ba'zisi kunduz kunlari ham devor kemptiklarida hurpayib o'tirar edi. (Xolmirzayev Shukur. Omon ovchining o'limi). Ertalab havo tund, osmonni past tushgan bulutlar qamrab olgan, ayvonda chumchuqlar*

chirqillashar edi. (Xolmirzayev Shukur. Omon ovchining o'limi). Bitta zag'izg'on otdi. Otilgan zag'izg'on otvorildi. (Xolmirzayev Shukur. Omon ovchining o'limi). Kaklik, chumchuq, burgut, zag'izg'on boyqush giponimlari birgalikda bir umumiy qushlar nomi giperonimiga kiradi.

Giponimlar nutqda manzaraning yiriklashtirilgan emas, balki detallashtirilgan ko'rinishida berilishiga xizmat qiladi. Badiiy matnlarda aynan shuning uchun mualliflar keng giperonim o'rnida tor ma'noli nomlarni qo'llaydi. Giponimlar ko'pincha o'ziga xos emotsional rangga ega bo'adi. *Bu safar aravani xirmonda qoldirib borsam, pastlikda yana to'rt ot o'tlab yuribdi. (Aytmatov Chingiz. Jamila.7-bet). Tog' etagidagi uzoq xo'jaliklardan eshak va ho'kizlarga g'alla ortib kelgan bolalar bilan xotinlarning kiyimlari terdan sho'ri chiqib ketgan. Aytmatov Chingiz. Jamila.7-bet). Qorong'uda timirskilanib uyga kelganimda shovqin-suron avjida edi: it egasini tanimasdi. (Aytmatov Chingiz. Jamila.32-bet). Ikki xonadonning qo'y-echkilariga qaragan ham o'sha, tezak terib o'tin-cho'p g'amlagan ham o'sha. (Aytmatov Chingiz. Jamila.2-bet). Ola-a, mushukning bo'yi shiftda osig'liq turgan go'shtga yetmay puff sassiq degan ekan. (Aytmatov Chingiz. Jamila.5-bet). Ot,eshak, ho'kiz, it,qo'y,echki,mushuk giponimlari birlikda uy hayvonlari giperonimi tarkibiga kiradi.*

Giponimiya hodisasi nutq jarayonining muhim semantik vositalaridan biri bo'lib, u ifodalilikni kuchaytirishda bevosita ishtirok etadi. Giponimlar nutqni aniqlashtiradi, emotsional bo'yoq beradi, mazmuniy chuqurlikni yaratadi. *Qodir o'zini zo'rlab dars tayyorlamoqchi bo'lgan edi, ko'zi kitobda yaxmalak otib, hech narsa boshiga kirmadi. (Shuhrat. Oltin zanglamas. 28-bet). Qo'lida daftari bilan ketidan baqrayib qolganini anchadan keyin payqadi. (Shuhrat. Oltin zanglamas.15-bet). Kitob va daftar so'zlari giponimlarga misol bo'la oladi. Sariq matoni nihoyat topdim va uning yuzidagi qog'ozni yulib olib shosha-pisha suratga tikildim. (Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam). O'sha paytlari chol kamdan-kam esimga kelardi, esimga tushgan onlari esa ko'z oldimda qora sharpa kabi paydo bo'lar va bu sharpa meni tinmay ta'qib qilardi. (Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam). Yorilib ketgan lablari orasidan chirigan ko'm-ko'k tishlari ko'rindi. (Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam). Qizil, sariq, yashil, ko'k, oq, qora kabi so'zlar ranglar giperonimi tarkibiga kiradi.*

Xulosa qilib aytganda, giponimiya lingvistik tizimning nafaqat strukturaviy, balki stilistik va kommunikativ ahamiyatiga ega bo'lgan hodisasidir. Giponimlarning qo'llanishi nutqda aniqlik, to'g'rilik va mantiqiy izchillik kiritadi. Giponimlar nutqning ta'sirchanligini, uslubiy jozibadorligi va samaradorligini sezilarli ravishda orttiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xudoyberganova S. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T: "O'qituvchi",2006.¹
2. Safarova R. Ozbek tilida giponimiya. Avtoreferat. Toshkent-1990.²
3. Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi:Roman – T.: "Sharq", 2012.- 624b.
4. Xolmirzayev Shukur. Saylanma.2-jild. www.ziyo.com.kutubxonasi
5. Aytmatov Chingiz. Jamila. www.ziyo.com.kutubxonasi
6. Shuhrat. Oltin zanglamas:Roman – Toshkent:Global books. 2023.-448bet.
7. Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam. www.ziyo.com.kutubxonasi
8. www.ziyo.com.kutubxonasi